O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR HOKIMINING QARORI

2023 - yil 31 - oktabr 666-14-0-Q/23 Toshkent shahar hokimligi

Toshkent shahridagi jamoat transporti tizimida yangi, qo‘shimcha va rag‘batlantiruvchi tariflarni joriy qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ–59-son “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo‘nalishlarda hamda soatlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar sonini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomi hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “Toshkent shahrida jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 10-martdagi VI-80-73-14-0-K/23-son qaroriga muvofiq, Toshkent shahrida umumiy foydalaniladigan jamoat transportida ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish, jamoat transportida to‘lovlar shaffofligini ta’minlash, yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish va avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini rivojlantirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “Toshkent shahrida jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil

10-martdagi VI-80-73-14-0-K/23-son qaroriga muvofiq:

Toshkent shahar Transport bosh boshqarmasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 16-fevraldagi PQ–59-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent shahrida jamoat transportidan foydalanishda yo‘lovchilar uchun qulay tariflarni joriy etish hamda elektron to‘lovlarni ommalashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan loyiha taqdimoti ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish haqini to‘lash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan doirada belgilangan tariflar bo‘yicha amalga oshirilishi qayd etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yil 1-noyabrdan Toshkent shahrining jamoat transporti yo‘nalishlarida (avtobus va metropoliten) qatnovlarni amalga oshirish uchun yo‘lkira haqining quyidagi cheklangan tariflari belgilansin:

a) bir yo‘lovchi qatnovi uchun cheklangan tarif – 2 000 (ikki ming) so‘m. Bunda, bir yo‘lovchi qatnovi uchun 1 martalik to‘lov elektron to‘lov tizimi orqali amalga oshirilganda rag‘batlantiruvchi chegirma qo‘llanilgan holda – 1 700 (bir ming yetti yuz) so‘m undiriladi;

b) bir yo‘lovchining bagajini tashish bo‘yicha xizmat uchun – 3 000 (uch ming) so‘m;

d) qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalarini hisoblash uchun cheklangan tarif – 1 600 (bir ming olti yuz) so‘m.

3. Quyidagilar:

qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan transport kartalarining tarif rejalari 1-ilovaga;

transport kartalaridan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda

imtiyozli va bepul tarif rejalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Toshkent shahar Transport bosh boshqarmasi (A.Djurayev) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, ikki kun muddatda qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilarni tashuvchi tegishli tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan tanlov (tender) shartnomalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

5. Toshkent shahar hokimining ayrim qarorlari 3-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshkent.uz veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi Sh.Raximdjanov hamda Transport bosh boshqarmasi boshlig‘i A.Djurayev zimmasiga yuklansin.

Toshkent shahar hokimi vazifasini bajaruvchi **Sh.Umurzakov**

Toshkent shahar hokimining
2023-yil 31-oktabrdagi
666-14-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan transport kartalarining

TARIF REJALARI

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Tarif turlari (kun)	Tarif turidagi qatnovlar soni	To‘liq qiymatdan chegirish miqdori (%)	Chegirishni hisobga olgan holda, tarif rejasi qiymatidan imtiyozlar (%)	Tarif rejalarining narxi, so‘m
1.	“AV” avtobus - aholi uchun*	1	6	23	0	7 000
		5	22			27 000
		7	28			34 000
		10	44			54 000
		15	66			81 000
		20	88			108 000
		30	130			160 000
		90	390	30		436 000
		180	780	35		811 000
		365	1 560	40		1 497 000
2.	“AVM” avtobus, metro - aholi uchun*	1	7	23	0	8 500
		5	30			36 000
		7	38			46 000
		10	60			73 000
		15	90			110 000
		20	120			147 000
		30	180			221 000
		90	540	30		604 000
		180	1 080	35		1 123 000
		365	2 160	40		2 073 000
3.	“N” avtobus - pensionerlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun**	1	6	23	50	3 500
		5	22			13 500
		7	28			17 000
		10	44			27 000
		15	66			40 500
		20	88			54 000
		30	130			80 000
		90	390	30		218 000
		180	780	35		405 500
		365	1 560	40		748 500
4.	“T” avtobus - talabalar uchun**	1	6	23	50	3 500
		5	22			13 500
		7	28			17 000
		10	44			27 000
		15	66			40 500
		20	88			54 000
		30	130			80 000
		90	390	30		218 000
		180	780	35		405 500
		365	1 560	40		748 500

5.	“O‘” avtobus - o‘quvchilar uchun**	1	6	23	50	3 500
		5	22			13 500
		7	28			17 000
		10	44			27 000
		15	66			40 500
		20	88			54 000
		30	130			80 000
		90	390	30		218 000
		180	780	35		405 500
		365	1 560	40		748 500
6.	“NM” avtobus, metro - pensionerlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun**	1	7	23	50	4 250
		5	30			18 000
		7	38			23 000
		10	60			36 500
		15	90			55 000
		20	120			73 500
		30	180			110 500
		90	540	30		302 000
		180	1 080	35		561 500
		365	2 160	40		1 036 500
7.	“TM” avtobus, metro - talabalar uchun**	1	7	23	50	4 250
		5	30			18 000
		7	38			23 000
		10	60			36 500
		15	90			55 000
		20	120			73 500
		30	180			110 500
		90	540	30		302 000
		180	1 080	35		561 500
		365	2 160	40		1 036 500
8.	“O‘M” avtobus, metro - o‘quvchilar uchun**	1	7	23	50	4 250
		5	30			18 000
		7	38			23 000
		10	60			36 500
		15	90			55 000
		20	120			73 500
		30	180			110 500
		90	540	30		302 000
		180	1 080	35		561 500
		365	2 160	40		1 036 500
9.	“B” bepul - O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq transportdan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar uchun	30	60	-	-	0

Izoh:

Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi quyidagicha:

C=X*1600-A-B.

Bunda:

C – tarif rejaning narxi;

X – transportda qatnovlar soni;

1600 so‘m – qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalarini hisoblash uchun cheklangan tarif;

A – To‘liq qiymatdan chegirish miqdori (%);

B – Chegirishni hisobga olgan holda, tarif rejasi qiymatidan imtiyozlar (%).

Toshkent shahar hokimining
2023-yil 31-oktabrdagi
666-14-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Transport kartalaridan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli va bepul

TARIF REJALARI

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Almashish turlari	To‘lov miqdori (so‘m)
1.	1 soatlik A+A+A+A	birinchi avtobusda to‘lov	1 700
		ikkinchi avtobusda to‘lov	700
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0
2.	1 soatlik M+A+A+A	metrodagi to‘lov	1 700
		birinchi avtobusda to‘lov	1 100
		ikkinchi avtobusda to‘lov	700
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0
3.	1 soatlik A+M+A+A	birinchi avtobusda to‘lov	1 700
		metrodagi to‘lov	1 100
		ikkinchi avtobusda to‘lov	700
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0
4.	1 soatlik A+A+M+A	birinchi avtobusda to‘lov	1 700
		ikkinchi avtobusda to‘lov	700
		metrodagi to‘lov	1 100
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0
5.	1 soatlik A+A+A+M	birinchi avtobusda to‘lov	1 700
		ikkinchi avtobusda to‘lov	700
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0
		metrodagi to‘lov	1 100

Izoh: Bunda:

A – avtobus tushuniladi;

M – metro tushuniladi.

Yo‘lovchi birinchi transportga chiqishida to‘lov qilingan vaqtdan boshlab hisob davri boshlanadi.

Bir soatlik tarifda metrodan faqat bir marta foydalanishga ruxsat etiladi. Ikkinchi marta metrodan foydalanganda 60 minutlik hisob davri yangidan boshlanadi.

Toshkent shahar hokimining
2023-yil 31-oktabrdagi
666-14-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Toshkent shahar hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari ro‘yxati

1. Toshkent shahar hokimining 2016-yil 31-martdagi “Yangi tariflar joriy qilinishi to‘g‘risida”gi 273-son qarorning 1- va 2-bandlari..

2. Toshkent shahar hokimining 2016-yil 29-sentabrdagi “Yangi oylik yo‘l chiptalarini joriy qilinishi to‘g‘risida”gi 890-son qarorining 2-bandi va ilovasi.

3. Toshkent shahar hokimining 2019-yil 15-avgustdagi “Yangi tariflar joriy qilinishi to‘g‘risida”gi 1123-son qarorining 1-bandi.